

“YANGI O’ZBEKISTONNI ISTE’DODLI YOSHLARI” TO’PLAM TAHLILI

Xayrullo Atavullayev

O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“Ma’naviyat va ma’rifat” bo’lim boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yangi O’zbekistonning iste’dodli yoshlari” ilmiy-amaliy maqolalar to’plami nashr qilinganligi, mazkur to’plamdan joy olgan maqolalar va nashrdagi texnik xatoliklar tahliliy hamda tanqidiy jihatdan yoritildi.

Kalit so‘zlar: Yangi O’zbekiston, davr, renessans, san’at, sport, muzeysenoslik, aura, motivatsiya.

O’zbekiston! Naqadar go’zal o’lka, insonparvar va mehnatkash xalq. Tarixga nazar solsak, biz yashagan yurtda odil, aql-idrokli, dono, qo’rqmas, mard-og’lonlar, ilmda tengi yo’q daholar dunyoga kelgan. Ilm-fan sohasidagi ulug‘ bobolarimiz Farobiy, al-Farg‘oniy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, az-Zamaxshariy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Boburlarning mehnati hozirgi kun asosidir. Bu ulug‘ allomalarga ilmu zakovatiga butun dunyo tan bergen. O’z davrining buyuk Renessans asoschilaridir. Har bir sulola davomchilari bo’lganidek, bu allomalar davomchilari kimlar? Albatta biz, buyuk davlat kelajagimiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ulug‘, butun dunyo tan bergen ajdodlarimiz davomchilarini kashf etish, yangi O’zbekistonda yangi dunyoqarash, yangi imkoniyatlarni yaratib berish maqsadida “Uchinchi Renessans”ga start berdi. Bu butun xalq uchun kutilmagan qaror bo‘ldi. Xo’sh, biz Uchinchi Renessans qahramonlari bo‘lishga tayyormizmi? “Maktab misni tillo qilur, maktab sizni mullo qilur...”¹³ deganidek, Uchinchi Renessansni yaratish uchun Prezidentimiz avval maktabgacha ta’lim, Oliy va o’rta maxsus ta’lim maskanlariga e’tibor qaratib, yoshlarimiz uchun keng va qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Yangi O’zbekiston shiori olg‘a surilmoqda va yoshlarimiz zamon bilan hamnafas odimlamoqda. Har bir soha bo‘yicha yangidan-yangi dasturlar ishlab chiqilmoqda. Prezidentimiz “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz”¹⁴ kitobida quyidagicha ta’kidlaydi: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, Hudo xohlasa havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo‘ladi” deydi. Yurtboshimiz har bir nutqida biz yoshlarga motivatsiya beradi. Kuchimizga kuch qo’shami, ularning har bir sohadagi aurasi bizni o’ziga tortadi.

¹³ Iqtiboslar olami. Elektron dastur, <https://play.com/store/apps/details?id=com.iqtiboslar.olami.aforizmlar>

¹⁴ Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” kitobi, O’zbekiston nashriyoti, T:- 2017, 439b.

**“FAN, INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

20-Fevral, 2025-yil

Yangi O‘zbekiston yoshlari hozirgi kunda o‘z ustida tinimsiz izlanmoqda va yangi qirralarni o‘zlarida kashf etmoqda. Dunyo mamlakatlarida kasbiy malakalarini oshirib kelaytgan yoshlarimiz yurtimizning har sohada taraqqiy etishiga o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar. Biz yoshlar ajdodlarimizga munosib avlod sifatida buyuk kashfiyotlar bilan dunyo hamjamiyatini lol qoldirish vaqt keldi. Biz uchun uyqu endi begona, dangasalik har vaqt bizni xo‘r qilur deganidek, kecha-yu kunduz ulug‘ ajdodlarimiz kabi yurtimiz bayrog‘larini ko‘klarga ko‘tarib, butun dunyoga tanitish payti keldi. Yangi O‘zbekistonning yangi yoshlari Uchinchi Renessansga qadam bosing. O‘zimizni ko‘rsatish payti keldi. Har bir vaqt qadriga yetgan holda o‘z sohamiz fidoyilariga aylanaylik. Buyuk sarkardar Amir Temur bobomizdek “Qay bir joydan bir g‘isht olsam, o‘rniga o‘n g‘isht qo‘ydirdim, bir daraxt kestirsam, o‘rniga o‘nta ko‘chat ektirdim” degan hikmatiga amal qilaylik. Biz ham tarixda ulug‘ ajdodlarimiz kabi nom qoldiraylik.

Yangi O‘zbekiston davrida “Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari” ilmiy ishlari to‘plami nashrdan chiqdi. Bu to‘plamda Yangi O‘zbekistonning yoshlari yurtimizda har bir soha bo‘yicha erishayotgan yutuqlari, kashfiyotlari, fikrlari yozilgan. Bilasizmi? Bu kitob shu davrning tarixidir. Bular hali yosh deyishimiz mumkin lekin, yana tarixga nazar solar ekanmiz, Bobur 12 yoshida bir yurtning sultonni bo`lgan, Imom al-Buxoriy 9 yoshida qur’oni yod bilgan, Navoiy 7 yoshida o‘z bilimlari aqil-zakovati bilan “Mantiq ul-tayirni” yod aylagan. U davr qaydayu biz qayda.

Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari 3ta toplamdan iborat. Fan, adabiyot, ta’lim, iqtisodiyot, texnologiya, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik, strategiyalar, hozirgi zamon talabi mavzulari tanlangan. Atab o‘tkan sohalar bo‘yicha yangi ilmiy ishlari olib borilgani haqida ham mag‘lumotlar berilib o‘tkan. Bu toplamda biz Yangi O‘zbekistonning porloq kelajagi bo‘lgan yoshlarni ko‘ramiz. Oliy odam mayda ishlari bilan ko‘zga ko‘rinmas, aksincha buyuk ishlarga bel bog‘laydi. Mayda odam esa buyuk ishlarga ishonmaydi, uni safsata deb biladi, shu bois uning taqdiri ham o‘zi kabi mayda bo‘lib qoladi degan ekan Konfutsiy.

Bu to‘plamning ichida biron bir san’atga dahldor ilmiy-amaliy ish haqida yozilmagan. Nafaqat san’at balki madaniyat, sport. Nahotki yurtimizda aynan Yangi O‘zbekiston davrida bu sohalarga e’tibor qaratilmayotgan bo‘lsa. Shuncha yoshlar ichida bu sohalar haqida hech kim yozmagan, hatto fikr ham berilmagan. San’atda ilmiy ish qilinmadni deb aytolmaymiz deyish ham mumkin. Lekin, san’at bu shunday soha-ki, bu soha insonlari bir olam. Lenin o‘z davrida “San’atsiz hayot vaxshiydir” deb ta’kidlagan.

Aynan san’at sohasining raqs yo‘nalishi bo‘yicha yurtimizda “Lazgi” baleti sahnalashtirildi. Bu baletga Germaniyadan mutaxassislar jalb qilindi. Hozirgi kunda xorazm raqsini butun dunyo tanimoqda va bu biz uchun katta yutuq, ana sizga ilmiy-amaliy ish. “O‘zbek raqs afsonalari” deb nomlangan hujjatli film olindi. Bu filmda o‘zbek raqs maktabiga oid raqlar haqida tarixdan boshlab hozirgi kungacha bo‘lgan muhitni ko‘rsatib berdi, raqqosalar butun vujudi bilan ijro etishdi. Bu hujjatli film endi hamma dunyo xalqlari talabi bo‘lgan “Youtube” tarmog‘iga qo‘yildi. Undanda tashqari O‘zbek raqs haqida ilmiy kitoblar ham nashr etilmoqda. Sport sohasida endi.... Championlarimizni dunyo biladi.

**“FAN, INNOVATSIYA VA TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANISHINING DOLZARB
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi

20-Fevral, 2025-yil

Olimpiadalarda champion bo‘lib kelmoqdalar. Bunday championlarni ustozlari va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar haqida yozilishi kerak deb o‘ylayman. Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari ular hamdir. Bu to‘plamda san’at, madaniyat va sport sohalari haqida hech narsa bayon etilmagani meni juda ranjitdi. To‘g‘ri muzeysunoslik haqida bayon etilgan lekin, bu yetarlimas. Balki no‘to‘g‘ridir, lekin, bu mening shaxsiy fikrim. Qadimdan Rimliklar “Hayot- qisqa, San’at abadiy” deb aytishmagan.

To‘plamning bundan keyin jamiyatimizdagi o‘rni va maqsadi shundandan iboratki, yosh avlod bu to‘plamni ko‘rib, men ham bunday to‘plamlarga maqola yozaman, mening ham qo‘limdan shunday ilmiy ishlar qilish keladi deb, harakat qiladi. Bu gapim ma’nosini men al- Xorazmiy so‘zлari bilan taqqoslayman, “Doimo harakatda bo‘lish kerak. Chunki to‘xtaganni o‘tirgisi keladi. O‘tirganni yotgisi keladi. Yotganni uxlagasi keladi”¹⁵. Bu to‘plam yoshlar o‘rtasida sog‘lom raqobatni yo‘lga qo‘yadi, motivatsiya bo‘ladi. Ota-onalarimiz farzandlarini yutug‘ini ko‘rib faxrlanadi, ularni yanada qo‘llab-quvvatlaydi. Yangi O‘zbekistonni yangi yoshlarini biriktirganday, safini ham kengaytiradi. Tinib-tinchimas yoshlar yangi kashfiyotlarni ham yaratса ajab emas.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning ham bunday to‘plamlarda o‘rin topishi, bunday to‘plamlarning o‘zi nashrdan chiqishi biz uchun bir yangilik. Bil Geys “XXI asrda sizni biznesingiz internetda yo‘qmi, demak siz biznesda yo‘qsiz”¹⁶ deydi. Bu to‘plam hozirgi kunda internet tarmog‘larida ham yoshlar o‘rtasida keng targ`ib qilinmoqda. Intilish bor yerda - o‘sish ham bo‘ladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekistonni yangi yoshlari, yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda siz ham o‘z sohangizning ochilmagan yangi qirralarini ochib berib, yangilik yarating. Ertaga emas, bugundan harakat qiling. Biz shunday buyuk yurt farzandlarimiz, bizning kelajagimizni har kuni bizdan-da ko‘p o‘ylaydigan Prezident otamiz bor!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz” kitobi,O‘zbekiston nashriyoti, T:- 2017,439b.
2. Iqtiboslar olami. Elektron dastur, <https://play.com/store/app>
s/details?id=com.iqtiboslar ola mi.aforizmlar

¹⁵ Iqtiboslar olami. Elektron dastur, <https://play.com/store/apps/details?id=com.iqtiboslar olami.aforizmlar>

¹⁶ O’sha manba